

Tamaraxonum uy-muzeyiga tashrif

Sharq san'atining yo'lchi yulduzlaridan biri Tamaraxonimning hayotiy va ijodiy faoliyati bilan tanishish keng qamrovli bilimga ega bo'lish demakdir. 2021-yil 16-aprelda Yer resurslarini boshqarish fakultetining 4-bosqich 14-guruh talabalari guruh murabbiyi Z.Xafizova bilan birgalikda O'zbekiston xalq artisti Tamaraxonim uy muzeyiga tashrif buyurdilar. Muzeyning ilmiy xodimi Iroda Fayzullaeva talabalarga Tamaraxonim to'g'risida, uning hayoti va faoliyati xususida, Tamaraxonimning hayot yo'li, bolalik yillari, raqsga kirib kelishi, konsert guruhlari, o'zi tuzgan professional raqs dastalari va o'zbek xoreografik ta'lim nazariyasiga qo'shgan xissasi, xamda Tamaraxonimning lapar folklor yo'nalishidagi ijodi, yoshi, millati va ijtimoiy tabaqasidan qat'iy nazar tomoshabinlarning oldida raqsga tushishni yaxshi ko'rgani haqida gapirib berdi. Shundan so'ng Talabalar o'zlarini qiziqtirgan savollariga kerakli ma'lumotlarni olishdi.



TIQXMMI matbuot kotibi